

PAK VAN SO VA SAIDA ZUNNUNOVA IJODIDA “AYOL” KONSEPTI

Bazarova Shaxlo Shuxratovna

Koreys filologiyasi kafedrası katta o'qituvchisi

Annotatsiya: Ushbu maqolada Saida Zunnunovaning ijodi va Pak Van Soning ijodidan hikoyalardagi konseptlarni o'rganib chiqdik. Ularning matn dunyosini o'rganilishi yuqoridagi asarlarda uch turdagi tushunchalarning ifodalanishini ochib beradi, ya'ni: ijtimoiy, ijtimoiy-madaniy va hissiy konseptlar. O'zbek va koreys ijodkorlarining badiiy matnlarida ayol konseptini ko'rib chiqishni maqsadga muvofiq deb hisobladik, zero Saida Zunnunova va Pak Van So matn olamining dominantlari-konseptlarining asosiylaridan biri ayol koseptidir.

Kalit so'zlar: konsept, mental birlik, kognitiv-pragmatik, diskurs, lingvomadaniy, germeneytik, sinergiya

Аннотация: В данной статье мы изучили концепции рассказов из произведения Саиды Зуннуновой и произведения Пака Ван Со. Их изучение текстового мира выявляет выражение в названных произведениях трех типов концептов, а именно: социальных, социокультурных и эмоциональных концептов. Мы посчитали целесообразным рассмотреть концепт женщины в художественных текстах узбекских и корейских авторов, поскольку одним из доминирующих концептов мира текстов Саиды Зуннуновой и Пак Ван Со является концепт женщины.

Ключевые слова: концепт, ментальное единство, когнитивно-прагматический, дискурсивный, лингвокультурологический, герменевтический, синергетический

Annotation: In this article, we studied the concepts of stories from the work of Saida Zunnunova and the work of Pak Van So. Their study of the textual world reveals the expression in these works of three types of concepts, namely: social, sociocultural and emotional concepts. We considered it appropriate to consider the concept of a woman in the literary texts of Uzbek and Korean authors, since one of the dominant concepts in the world of texts by Saida Zunnunova and Pak Van So is the concept of a woman.

Key words: concept, mental unity, cognitive-pragmatic, discursive, linguoculturological, hermeneutic, synergetic.

So‘ngi o‘n yilliklardagi asarning individual xususiyatlarini aniqlash va tavsiflash uchun ikki yoki undan ortiq tillarning asl matnlarini qiyosiy o‘rganish tamoyili kuzatilmoqda (V.S. Baevskiy, E.M.Beregovskaya, B.Ya.Buxshtab, M.Yu.Lotman, I.Ya.Chernuxina). Ushbu tamoyil kognitiv tadqiqotning yangi sohasi - qiyosiy poetikada amalga oshirilmoqda. Badiiy matnning konseptual makonini o‘rganish muammosi, shubhasiz, kognitiv tadqiqotlar uchun katta qiziqish uyg‘otadi va uni yanada rivojlantirishni taqozo etadi. Matn olami konseptosferasi turli asarlarning konseptosferalari majmui sifatida badiiy tushunchalar bilan ifodalanadi, ularning bir qismi adibalar uchun zamonaviy jamiyatning ijtimoiy muammolarini ifodalovchi dominant konseptlardir: ayol, vatan, mehnat, pul, oila, uy va boshqalar.

Ma’lumki, konseptlar – filologiyaning ayniqsa, tilshunoslikning keng tarqalgan va juda ko‘p ta’rif berilgan atamalaridan biri. Konsept- xotiraning tezkor mazmun birligi (E. Kubryakova), tuzilmalastirilgan bilim kvanti (Z. Popova, I. Sternin), tushunchaning sinonimi (Y. Stepanov), hayotiy tajriba yig‘indisi (B.Karasik), madaniyatning kalit so‘zi (A. Vejbitskaya), mental birlik (V. Kolesov) va hokazo. “Konsept” tilshunoslikning antroposentrik paradigmasi va kognitiv-pragmatik metodologiya bilan bog‘liq, shaxsning matnlarda aks ettirilgan dunyoqarashi, intellektual va ruhiy fazilatlarini ifodalash uchun “diskurs”, “dunyoning manzarasi” singari va boshqa tushunchalar bilan birga ishlatiladi. “Konsept” atamasi T. Gobbs, P.Abelyar, U.Okham va boshqalar asos solgan o‘rta asrlar konseptualizmi davriga tegishli. Hozirgi kunda mazkur atama qayta tiklangan va yana dolzarb ahamiyat kasb etgan. Konseptlar - badiiy matnning konseptual makondagi kognitiv konstruktsiya, voqelikning mustaqil hodisalari hisoblangan hissiy vizual obrazlar orqali voqelikni badiiy talqin qilish shakli¹. Konsept – madaniyat, tafakkur va til sohasidagi ilmiy nuqtai nazarlarni birlashtiradigan birlik. Konseptlar jamoaviy til tafakkurida muhim o‘rin egallaydi, shu sababli ularni tadqiq etish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Jahon adabiyoti namoyandalaridan, o‘zbek shoirasi va yozuvchisi Saida Zunnunova hamda koreys adibasi Pak Van Solarning badiiy nasri o‘zining o‘ziga xosligi

¹Карасик В.И. О типах дискурса // Языковая личность: институциональный и персональный дискурс: Сб. науч. тр. Волгоград: Перемена, 2000. С.5–20.

bilan ajralib turadi. O 'zbek madaniyatining eng muhim konseptlari Saida Zunnunova ijodida yorqin aks etgan. Til va madaniyat o'rtasidagi munosabat nuqtai nazaridan Pak Van So ijodiyoti ham konseptlarning lingvomadaniy makonning markerlari sifatida ifodalanganligi bilan ajralib turadi. Shu bois ikkala so 'z san'atkorining badiiy nasrida eng muhim konseptlarni aniqlab adabiy va madaniy an'analar uchun ahamiyatini hisobga olgan holda qiyosiy o 'rganish va ochib berish maqsadga muvofiq. A. N. Prihodko ta'kidlaganidek, "butun ilmiy sohalarining (qiyosiy fonetika / grammatika / leksikologiya) rivojlanish bosqichiga o'tgan kontrastiv tilshunoslik doirasida qiyosiy konseptologiya haqida gapirish vaqti keldi" [Prihodko 2008: 81].

1962-yilda yozilgan "Qo 'llar" hikoyasida eri urushdan qaytmagan ayol haqida hikoya qilinadi. Faqat uy ishlari bilan band bo 'lgan Malika xola eri urushga ketgach zavodga ishga kiradi, og 'lini bog 'chaga joylashtiradi.

"Mehnat alamini engillatganday, dardiga darmon bo 'lganday tuyuldi. Taqdiri unikiga o 'xshagan ayollar unga sirdosh, do 'st bo 'ldilar" (261 b.).

"Qora xat kelgan kuni u uchun dunyo ostin-ustun bo 'lib ketdi. O 'sha kundan boshlab ne azobda o 'zini qo 'lga olib, hamma vaqt uyda ham, ko 'chada ham erining xotirasini hurmat qilib yashadi. Yolg 'iz o 'g 'li Baxtiyorni dadasiga o 'xshab sofdil, mehnatkash qilib o 'stirishga harakat qildi. Baxtiyor chindan ham dadasiga o 'xshadi. Uning muomalasi, mehnatsevarligi, mehribonligi, xatto ba'zi bir qiliqlari ham otasini eslatib turar edi. "Mana shu mehnatkash qo 'llari unga halol non yedirdi, toza kiyim kiydirdi. Siladi, erkaladi, uni odam, chinakam inson qilib o 'stirdi. Mana, bugun u kelinlik bo 'ldi" (262 b.).

Ayol erini urushga kuzatgandan keyin, uning kiyimlarini avaylab, asrab saqlaganligi lavhalarida ham sadoqat va mehr ufurib turadi: "Hamma vaqt qulf turgan bu sandiqda erkaklarning bir ikki dona erkaklar ko 'ylagi, kiyilib, anchagina nimdosh bo 'lib qolgan bir palto bilan yangigina bir kostyum bor edi xolos. Malika xola ularni sandiqdan oldi. Tizzasiga qo 'yib, paltoning yoqa va yenglarini sekin-sekin, go 'yo ozor berib qo 'yishdan qo 'rqqanday bir kayfiyatda siladi. U o 'n yetti yildan beri bu mashg 'ulotni takrorlashdan zerikmadi. Bahor bo 'lsa kuya doriga soladi, kuz bo 'ldi deguncha,

sandiqdan olib, qoqib silkib ilib qo‘yadi. Qishda bu palto o‘g‘li va o‘zining paltolari qatorida ilig‘lik turadi. Egasi ham shu yerda, shular bilan, faqat yaqingina bir joyga chiqqanu hozir kelib kiyadiganday” (261 b.). Mazkur lavhada ayolning sog‘inchi, sadoqati, vafosi ifodalangan. Saida Zunnunova ijodida urush davri xotiralari, urush va ayollar mavzusi alohida o‘rin tutadi. Urushning asoratlari, xotiralari ijodkorning hikoyalariga ko‘chib o‘tgan. “Qo‘llar” hikoyasi syujet qahramonining ichki kechinmalari asosiga qurilgan. Muallif ayol konseptini yaratishda psixologik tasvirga alohida e‘tibor qaratadi. Psixologizm, ayniqsa, Malika xolaning kelinlik davrini, erini qo‘msashida yaqqol seziladi. Urush tufayli yoshligi zavol topgan avlodning qayg‘usi ifodasiga alohida diqqat qaratiladi. Shuningdek, onaning uzoq yillar davomida bolaga singigan mashaqqatli mehnati, cheksiz mehr-muhabbati, sadoqati, quvonchi, ezgu niyatlari, umid va tashvishlari, qalb qo‘ri ifoda etilgan.

Tadqiqotimiz mavzusi bo‘lgan konseptual sohani matnlarda o‘rganish, “ayol” konsepti bilan bog‘liq semantik yadroning bir qator eng muhim lingvistik va diskursiv voqealanishini aniqlash va o‘rganishni talab qiladi. Hikoyada “ayol” konsepti “oila” konsepti bilan uzviy bog‘liq. Turli tadqiqotchilarning fikrlarini umumlashtirib “oila” konseptining semantik maydonini quyidagi tarkibiy qismlarga ajratish mumkin².

Oila konseptining tuzilishi bo‘yicha:

1. Konseptning makonda voqealanishi: uy, vatan, ona yurt, minora, kulba, tepangi xona, stol, karavot va boshqalar;
2. Oila a‘zolari: ota, ona, o‘g‘il, qiz, singil, aka, bobo, buvi va boshqalar, shu jumladan xizmatkorlar, xizmatchilar va boshqalar;
3. Oilaning moddiy olami: yodgorliklar, marosim buyumlari;
4. Jinsiy rollar: erkak / ayol, erkaklik / ayollik;
5. Oilaviy va maishiy marosimlar: tug‘ilish, to‘y, dafn qilish;

² Антология концептов / под ред. В.И. Карасика, И.А. Стернин. – М.: Гнозис, 2007.10 с.

6. Oilaviy anomaliyalar: yetim, beva, yengiltaklik, bo'ydoqlik, zinokorlik va boshqalar. Keltirilgan tarkibiy qismlardan mazkur hikoyada uy, ota, ona, o'g'il, kelin, yodgorliklar (otasining kostyumi, paltosi, uzuk kabilar), to'y marosimi kabilar o'rin olgan.

Adibaning 1970 yilda yaratilgan "Buvi" hikoyasida asosan ayol konsepti bilan yonma-yon ona tili konsepti turganligini ko'ramiz. Buvining ko'ngli o'g'lidan, kelinidan, nabiralaridan to'q. O'g'li Sharifjon - jurnalist. Uning umri komandirovkada o'tsada, qanchadan – qancha odamlarni elga tanitgan. Uning qalamidan yaxshilar "elga tanilsa", yomonlar "sharmanda bo'lar edi". Uni hamma taniydi. Umriniso buvining qo'liga gazeta tushib qolsa ko'zoynagini taqib, o'g'linig ismini izlaydi. Kelini Sultonxon ham juda yaxshi ayol. Kamtarin, mehnatkash, katta bir maktabning direktori. Nabiralari ham yomon emas. Faqat ba'zi narsalar keksa onaga yoqmaydi. Masalan, buvisi bo'lmasa Nargis ukasi bilan o'zbekcha gaplashishmaydi. Hikoyada ona tili mavqeini ko'tarish masalasiga maxsus e'tibor qaratilgan. Saida Zunnunova tilga bo'lgan fikrlarini buvining misolida namoyish etadi: "O'nta tilni bilsang ham mayli bilaver. Lekin seni boqayotgan tilni bilmasang, odammisan sen? Agar qaynonang mening ko'nglimdagidek xotin bo'lsa, boring, bolam avval onangizning tilini o'rganib keling, deydi" (277 b.). Buvi o'zbek tilini chala biladigan, gaplariga ruscha qo'shib gapiradigan nabirasi Nargisga tanbeh beradi. Nargis gap topolmay: "Voy, buvijon, - deyar edi. ...Bolalaring bo'lsa o'zing bilmagan tilni qanday o'rgatasan? Maktabidan o'zbek tilidan ikki olib keladimi? Umriniso buvining shunday jahli chiqqan ediki, hatto Nargisni gapirishga ham qo'yamay, siltab-siltab tashladi. Sevimli buvisi uni hech qachon bunchalik urishmagan edi. – Tavba qildim, buvijon. Juda ham unchalik tushunmayman emas (277 b.). Umriniso buvi fikrlarini davom ettiradi: "Hamma narsaga e'tiqod kerak. El-yurtga ham, muhabbat, ro'zg'orga ham, hatto tilga, so'zga ham. E'tiqod qo'yilmagan narsa xarob bo'ladi" (278 b.). Aniqlanganidek, hikoyada oila, mehnat, ona tili konseptlari muhim o'rin egallagan.

Saida Zunnunovaning "O'shanda ham kuz edi" hikoyasida Nizomjon onasining o'gay ekanligini bilmaydi, biroq sinfdoshi Sodiqjonning onasi Lutfixon xolaning

ehtiyotsizlik bilan haqiqatni aytishi bolaning qalbini yaralab, hayotini ostin-ustun qilib yuboradi: “Peshonang ham qursin, onasizliging yetmasmidi. Xudo otangdan ham ayirdi, endi chidaysanda, bolam. Sening onang chaqaloqligingda o‘lib ketgan bolam. Bu onang o‘gay. Agar seni turtkilasa, indamay biznikiga chiqib kelaver. O‘rtog‘ing bilan yuraverasan” (282b.). Nizom go‘dak edi. Haqiqatni bilmasligi bolalik baxti edi. Bu gap uning qalbini qanchalik o‘kinch, armonga to‘ldirgan. Onasining barcha mehribonliklari birinchi marta begonaday tuyulgan. Onasining “o‘zim tuqqanman” deb yalinib yolvorishiga qaramay uyidan qochib ketgan edi. Onasi, ukalari uning ortidan yig‘lab ergashib borishgan, quvib eta olmagan edilar. Bahri xola Nizomjonni o‘ziga keltirguncha ne-ne azoblarni boshidan o‘tkazmadi. Shu kunlar ham o‘tib ketdi. Nizomjon bu yil institutni bitiradi. Onasi uni uylantirish tashvishida. O‘qishdan qaytgan Nizomjon uyida Lutfixon xolaning onasi bilan gaplashib turganini ko‘rib haydab solmoqchi bo‘ladi. Onasining “bolam” degan so‘zi shashtidan qaytarib, o‘zi chiqib ketadi. O‘shanda ular bir mahallada yashar edilar. Qalbining butunligini tortib olgan ayolni ko‘rgisi kelmadi. Uyidan ancha olislab ketgan Nizomjonni qo‘shni ayol Nurxon xolaning so‘zlari o‘ziga keltiradi: “Nizomjon bu yerda nima qilib o‘tiribsiz? Oyingiz qidirib yuribdi. Ra‘noni bir yoqqa, ukangizni bir yoqqa jo‘natib, o‘zi ko‘chada o‘tiribdi”. Nizomjon sakrab o‘rnidan turib ketdi. Yana onasini qiynaydimi? Onasining mehriga javobi shumi? Yo‘q, yo‘q, oyijon meni kechiring”! Nizomjon jadal yurib ketdi. Tahlildan ko‘rinib turibdiki, mazkur hikoyada dominant konseptlarni ayol, oila, ona, mehnat tashkil qilgan. Ayol konsepti sirli olami, go‘zal kechmishi bilan Saida Zunnunova hikoyalarida etakchilik qiladi. U badiiy asarning poetic go‘zalligini ta‘minlashda, tuyg‘ular nozikligini his qilishda katta vazifani bajaradi. Hikoyalarda ijodkorning xayoli bilan yaratilgan ayolning ijtimoiy holati uning oiladagi o‘rni bilan bevosita bog‘liq. Oila jamiyatning kichik birligidir va jamiyatdagi odamlarning munosabati, qarashlari, afzalliklari, xayollari tabiiy ravishda oiladagi muhitni anglatadi. Hikoyalarning kognitiv-germenevtik tahlili ayol konseptining konseptlarga nisbatan ustunligini ko‘rsatdi. Shunisi e‘tiborga loyiqki, u boshqa konseptlar bilan sinergiya qiladi. Ko‘rib chiqilgan hikoyalarda “ayol” konsepti turli darajadagi chastotalarda taqdim etilgan.

Koreys adibasining hikoyalari “ayol” konseptining chuqur xususiyatini o‘z ichiga oladi, etnik madaniyatning o‘ziga xosligini aks ettiradi, adib ijodida ayolning ichki holati, ma’naviy dunyosi, hayotdagi o‘z maqsadini izlash, bu hayot mazmunini boshqalarga nisbatan anglashdagi kechinmalarining aks etishi markaziy o‘rinni egallaydi.

Bu borada yozuvchining “Qora beva” hikoyasini ta’kidlash joiz. Yozuvchi hikoyasiga “Qora beva” deb nom qo‘ygani bejiz emas. Pak Van So o‘z qahramoniga “qora beva” laqabini beradi, go‘yo uning kasal eriga nisbatan shafqatsiz munosabati, pulni tejashga ishtiyoqi va boshqalarga befarq munosabatini ta’kidlaydi. Mashaqqatli mehnat bilan topilgan pul yig‘ishga bo‘lgan cheksiz ishtiyoq, o‘zgalarning uning hayotidan mutlaqo bexabarligi, ojizligi tufayli kasal eriga nisbatan nafrat va murosasizlik tuyg‘ularini omma oldida namoyon etish, mardikor ayolning yoqimsiz ko‘rinishi bilan kuchaytirilgan. Biroq, hikoyaning eng oxirida o‘quvchi ko‘z o‘ngida qahramonning butunlay boshqacha qiyofasi paydo bo‘ladi. Tashqi ko‘rinish - niqob ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bu niqob ostida aql bovar qilmaydigan ma’naviy va jismoniy sa’y-harakatlar evaziga o‘z farzandlariga uy sotib olish uchun pul yig‘ib, ularni tilanchilikdan qutqarib qolgan ona qiyofasi tasvirlangan. Qahramonning inkorini mubolag‘ali tarzda kuchaytirish maqsadida yozuvchi tomonidan qo‘llangan quyidagi frazeologik iboralar hikoya sarlavhasining mazmunini chuqurlashtiradi va kengaytiradi: 그녀가 과부로 여겨졌다는 사실이 그녀의 이익이었다 (Uning beva deb hisoblangani unga qo‘l kelardi)³; 불과 물처럼 여러 어려움을 지나온 마담조차도 이 아줌마 불명 앞에서 난감했었다. (Hatto, ular aytganidek, olovdan ham, suvdan ham o‘tgan So xonim ham... bu xolaning shaddodligi oldida o‘zini yoqotib qo‘yar edi...); 그녀는 비정상적으로 어두운 피부를 가지고 있었고, 계산 생각은 검은 색이었다, 그래서 그들은 그녀를 그렇게 불렀다. (Uning terisi g‘ayrioddiy qoramtir va ehtiyotkor fikrlari - qora edi, shuning uchun uni shunday chaqirishardilar).

Pak Van So koreys tiliga xos bo‘lgan ichki obrazlilikni anglash bilan bog‘liq majoziy iboralardan mahorat bilan foydalanib ayolning portretini o‘ziga xos tarzda tasvirlashda davom etadi:

³Matnning o‘zbek tiliga tarjimalari muallifga tegishli

그녀는 낚싯대로 똑바로 붙잡았고, 이는 키가 큰 것처럼 보였다. (U o‘zini xodadek tik tutishi, uni baland qilib ko‘rsatardi).

Muallif asarda ayolning tashqi ko‘rinishi, xatti-harati, fe‘l-atvori haqida real tavsiflarni ifodalaydi. Adiba bu satrlarda “Qora beva” ning ko‘zga ko‘rinmas ichki dard, hayajon va qalb intilishini ifoda etar ekan uning ichki holatida (hayotiy fojiasida) psixologik tasvirning nikoh to‘shagi va qabrni bir-biriga mubolag‘ali taqqoslash, yonmayon tasvirlash orqali, bizningcha, psixologik tasvirning o‘ziga xos namunalarini yuzaga keltiradi. Biroq, ijodkor bu bilan cheklanmaydi, qahramonining ruhiy holatini keyingi satrlarda yanada kuchaytiradi. 이 화창하고 깨끗한 새 집에서 하루라도 살았다 죽었다면, 내 마음은 그렇게 아프지 않았을 것이다. (Agar u quyoshli va toza yangi uyda hech bo‘lmaganda bir kun yashab o‘lganida, ruhim bunchalik og‘rimgan bo‘lardi).

늑대처럼 열심히 일을 해서 천원 보다 조금 더 받는다. (Ho‘kizdek shudgor qilasan, lekin ming vondan sal ko‘proq olasan); 나는 그녀에 대해 듣자마자 소름이 돌아. – U haqda eshitganimda g‘am-g‘ussaga tushaman; 반대로, 나는 양심의 쌍둥이없이 나는 블랙 과부를 부를 수 있어서 지금 매우 기뻐다. – Aksincha, endi vijdon azobisiz Qora beva ayolni chaqirishim mumkinligidan juda xursand edim; “어떻게 판매합니까?!” 피가 가득한 눈으로, 그녀는 내가 그냥 했던 말을 거절했다. – Uni qanday sotish kerak?! - qonga to‘lgan ko‘zlarini dahshatli miltillatgancha, so‘zlarimni rad etdi, hech qanday qiziqishsiz shunday dedi; 그 후 나는 입 다물고 얼마나 눈물을 흘렸는지 말도 못 해요. – Shundan so‘ng men tishlarimni qisib qo‘ydim ... va qancha qonli ko‘z yoshlar to‘kdim - ayta olmayman; 그것은 하늘에서 별 따기 같은 것이었다. – 쉽지 않았다. - Bu osmondan yulduz olish kabi - bu oson ish emas edi; 그리고 오늘 아침 울부짖었는데, 마음은 여전히 우울해요. - Va bugun u ertalabdan baqirdi, lekin uning qalbida hali ham sog‘inch bor; Pak Van So tomonidan “Qora beva” hikoyasida ochilgan ayol obrazi diqqatga sazovordir. Kambag‘allikda yashagan, ishchi ayol, uch farzandning onasi hayotining maqsadi bolalariga uy sotib olish uchun pul yig‘ish bo‘lgan. Uning jirkanch qiyofasi va o‘zini tuta olmaydigan xatti-harakatlariga qaramay, hikoya oxirida hurmatga loyiq ona sifatida namoyon bo‘ladi.

Xulosa. Ko‘rib chiqilgan hikoyalar Pak Van So ijodini XX-asr oxirida koreys adabiyotidagi eng muhim hodisalardan biri sifatida belgilashga imkon beradi. Uning

asarlarida sanoatlashtirish davridagi jamiyat hayoti va bu davr qahramoni – yangi tipdagi zamonaviy koreys ayoli obrazi aks ettirilgan. Pak Van So hikoyalarda ayolning oila va jamiyatdagi mavqei asosiy muammo bo‘lib, u o‘z roldan qoniqmaydi va shuning uchun o‘zini tasdiqlaydi, o‘z o‘rnini “yuqorida” egallashga intiladi va uning barcha fikrlari farovonlikka qaratilgan. Ular ichki dunyo muammosiga murojaat qilmaydi. Pak Van So hikoyalari qahramonlarini “iste’mol jamiyati”dagi yangi turdagi odamlarning belgilari deb atash mumkin. Yozuvchi ushbu jamiyat yashayotgan qonunlar, odamlar ongiga pulning haddan tashqari ta’siri an’anaviy oilaviy munosabatlarning buzilishiga olib kelishi, ayolning “ayollik” - sevgi, mehr-oqibat, bag‘rikenglik va hurmat tuyg‘ularini yo‘qotishiga olib kelishini ko‘rsatadi, qanday hissa qo‘shishini aks etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI:

1. Карасик В.И. О типах дискурса // Языковая лич- ность: институциональный и персональный дискурс: Сб. науч. тр. Волгоград: Перемена, 2000. С.5–20.
2. Антология концептов / под ред. В.И. Карасика, И.А. Стернин. – М.: Гнозис, 2007.10 с.
3. Min Xyongi. Zamonaviy koreys nasrining tadqiqi. (민현기.한국현대소설연구). Тэгу. 1998. –В. 129.
4. Kwon Young-Min. Modern Korean Literature (II). //Seoul Journal of Korean Studies. Vol.14. December, 2001, p. 66-67.
5. Kim Mixyon.Koreys ayollar nasri va feminizm.김미현. 한국여성소설과페미니즘. Seul, 1996. B. 42-43.
6. Li Sansu. Nasr haqida turli mavzularda suhbat (이상수. 테마별로읽는소설이야기. 집문당) Сеул,1995. - В. 100.
7. An Namyon. Zamonaviy jamiyat o‘zgarishlarining nasrda ifodalash usullarining tadqiqi. (안남연.현대사회의변화와소설의대응방법에대한연구.// 현대소설연구. 한국현대소설학회). Seul. 1998. -В. 468.
8. Cho Namxyon. 1970-1980 yillar ayollar nasri va feminizm. 1990 yillar adabiyotii xususida munozara.조남현.
9. Байматова, М. (2022). Проблема перевода и адаптации непереводаимой терминологии (на примере английского и корейского языков). Анализ актуальных проблем, инноваций, традиций, решений и художественной литературы в преподавании иностранных языков, 1(01), 190-192
10. Базарова, Ш. Ш. (2022). Koreys adibasi shin kyon suk ijodining o‘ziga xosligi xususida. *Международный журнал искусство слова*, 5(3).
11. Shuxratovna, B. S. (2022). Koreys adibasi pak van so ijodining o‘ziga xosligi xususida. *Gospodarka i Innowacje.*, 24, 56-59.

12. Bazarova, S. S. (2022). Li Xe Jo asarlarida gender tenglik munosabatining ilgari surilishi. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 180-188.
13. Shuxratovna, B. S. (2022). Koreys adibasi pak van so ijodining o'ziga xosligi xususida. *Gospodarka i Innovatsije.*, 24, 56-59.
14. Назарова, Ш. Б. (2019). Ўзбек ва корейс тилида адвербализация ходисасининг қиёсий таҳлили.
15. Usmonqulovna, B. D., & Aziz To'liqin o'g, A. (2023). O'zbek va koreys tillarida adyektivatsiya hodisasi. *Journal of new century innovations*, 24(1), 46-49.
16. Эшимова, Ш. К. (2022). Personifikatsiya orqali obrazning yaratilishi. *Международный журнал искусство слова*, 5(4).
17. Bayanxanova, I. F., & Soliyeva, A. (2022). O'zbek va koreys tillarida kelishik kategoriyasi haqida umumiy tushuncha. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2(Special Issue 24), 114-121.
18. Furkatovna, B. I. (2021). Discursive-pragmatic features of korean and uzbek articles on the concept of"/man" 사람. *International Journal of Management*, 12(2).
19. Kamarova, M. (2022). Koreys va o'zbek tillarida so'z yasovchi qo'shimchalar orqali so'z yasalishi qiyosiy tadqiqotidan ta'limda foydalanish. *Ученый XXI века*, (7 (88)), 34-41.
20. Вахабова, М. Т. (2023). Сопоставительный анализ ключевой лексики-репрезентанта (имени) концепта «мать» в русском, корейском и узбекском языках (на материале словарей). *Journal of Integrated Education and Research*, 2(3), 52-57.